



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI

100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko‘chasi, 13 A
Tel: (71) 244-97-16, Faks: (71) 244-89-12

2021 йил “24” август

32-52433 - сон

Davlat reestriga kiritilgan onlayn-NKM va virtual kassa ishlab chiqaruvchilariga

Texnik xizmat ko‘rsatish markazlariga (ro‘yxat asosida)

Soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini oshirish ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 249-son qaroriga asosan “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi” tasdiqlangan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son qarori bilan tasdiqlangan “Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda quyidagilar belgilangan:

- onlayn-NKM va virtual kassa cheklarida **mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi bo‘yicha identifikasiyalash kodi**, mahsulotlarning (tovar va xizmatlarning) shtrix kodi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘lishi shartligi;

- fiskal ma‘lumotlar operatoriga yuboriladigan chekdagi tovarlar va xizmatlar kodlari xalqaro «GS1» yoki boshqa global tizimlar asosida yuritiladigan raqamlar bilan bir xil bo‘lishi hamda **tovarlar va xizmatlarning identifikasiya kodlari** fiskal ma‘lumotlar operatoriga yuborilishi.

Shuningdek, ushbu Qaror bilan onlayn nazorat-kassa mashinalari, virtual kassa va fiskal modulga texnik xizmat ko‘rsatish markazlari uchun alohida **Talablar** tasdiqlangan.

Mazkur talablarga asosan texnik xizmat ko‘rsatish markazlari zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan. Jumladan:

- onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani ro‘yxatga olish va davlat reestriga kiritishdan oldin uning texnik holatini ko‘rikdan o‘tkazishi va zarur dasturiy mahsulot bilan ta‘minlanganligini tekshirish;

- o‘z mijozlariga, onlayn-NKM va virtual kassadan **to‘g‘ri foydalanish** bo‘yicha tegishli **ko‘rsatma** va **maslahatlar** berib borish.

Shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish markazlari tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro munosabatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma asosida amalga oshirishlari belgilangan.

Amaliyotda tadbirkorlik sub’ektlari chakana savdo shahobchalari orqali tovarlarni realizatsiya qilishda tovarlarning yagona elektron milliy katalogi bo‘yicha **identifikasiyalash kodini qo‘llashda bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yayotganligi kuzatilmoqda.**

Misol uchun: tovarlarning aniq nomlarini alohida ko'rsatish o'rniga "товары в ассортименте" nomi bilan bitta qatorda umumlashtirib ko'rsatilmogda.

Bu o'z-o'zidan texnik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan yetarli darajada texnik xizmatlar ko'rsatilmayotganligi va tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli ko'rsatmalar berilmayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlaridan kelib tushayotgan e'tirozlarga ko'ra texnik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan to'lov amalga oshirilmaganligini bahona qilgan holda onlayn-NKM yoki virtual kassa tizimlarini ishlamaydigan holatga keltirib (o'chirib) qo'yilayotganligi ma'lum bo'lmoqda.

Vaholanki, onlayn-NKM va virtual kassa savdo va xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilgan har bir operatsiyani qayd qilib boruvchi, soliq to'lovchining soliq bazasi hisobini yuritilishini ta'minlovchi va xaridorga to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatni (chekni) shakllantiruvchi qurilmalar hisoblanadi.

Ushbu qurilmalarni ishlamaydigan holatga keltirib qo'yilishi natijasida soliq to'lovchiga tovarlarni sotishdan olingan daromadlarni hisobga olmaslikka (qayd etmaslikka) bahona bo'lib, xufiyona faoliyat bilan shug'ullanishiga zamin yaratib beradi.

Yuqoridagilarga ko'ra onlayn-NKM va virtual kassa ishlab chiqaruvchilaridan hamda texnik xizmat ko'rsatish markazlaridan quyidagilar

TALAB QILINADI:


1) onlayn-NKM va virtual kassa cheklarida har bir tovar, xizmat turi bo'yicha **17 ta raqamli tovarlar va xizmatlarning identifikasiya kodlari** ko'rsatilishini ta'minlash;

2) foydalanuvchilarga belgilangan tartibda texnik xizmatlarni ko'rsatgan va tegishli ko'rsatma va maslahatlarni bergan holda foydalanuvchilarning onlayn-NKM va virtual kassa tizimlariga ular tomonidan realizasiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarning har bir turlari bo'yicha alohida **tovarlar va xizmatlarning identifikasiya kodlari kiritilishini ta'minlash;**

3) onlayn-NKM va virtual kassa tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash ya'ni, onlayn-NKM va virtual kassa tizimlarini o'chirib qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik. Bunda, xizmat ko'rsatishni davom ettirgan holda yuzaga kelgan haqdorlik summasini sud tartibida undirish choralarini ko'rish lozim bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan talablarni ijrosini ta'minlamagan texnik xizmat ko'rsatish markazi qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat reestridan chiqariladi.

Raisning birinchi o'rinbosari



M.Mirzayev



Ijrochi: J.Ro'ziboyev
Tel.: 16-504